Ushbu integratsiya jarayoni bank tizimlarining yanada ochiqligi, shaffofligi va ishonchligini kuchaytirish bilan birga, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi. Ayniqsa, aholining bank xizmatlariga bo'lgan kirish imkonini oshirish orqali moliyaviy resurslardan kengroq foydalanish imkoniyati yuzaga kelmoqda.

Shu sababli, zamonaviy raqamli texnologiyalarning moliyaviy tizimlarga ta'sirini chuqur o'rganish, ularning amaliy qo'llanilishidagi natijalarni baholash hamda rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish hozirgi kunda ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda zamonaviy raqamli texnologiyalarning bank va moliyaviy tizimlarga ta'sirini tahlil qilish maqsadida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Nazariy tahlil – Raqamli texnologiyalar, blokcheyn, sun'iy intellekt va FinTech tizimlariga oid ilg'or ilmiy manbalar, statistik ma'lumotlar va amaliy tadqiqotlar asosida bank tizimlarida raqamli islohotlarning ahamiyati, ularning rivojlanish tendensiyalari hamda iqtisodiyotga ta'siri nazariy jihatdan o'rganildi.



Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish – O'zbekiston va xalqaro miqyosda bank tizimlarida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari yuzasidan Markaziy bank, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa moliyaviy tashkilotlarning statistik hisobotlari chuqur tahlil qilindi.

Taqqoslash va benchmarking – Raqamli bank xizmatlarining O'zbekiston va rivojlangan mamlakatlardagi holati taqqoslandi. Xususan, Xitoy, AQSh va Yevropa davlatlarining raqamli to'lov tizimlari, kriptovalyuta va FinTech kompaniyalarining bank tizimlariga ta'siri benchmarking usuli asosida tahlil qilindi.

Empirik tadqiqot – Raqamli bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar orasida so'rovnoma va intervyu o'tkazilib, ularning xizmatlardan qoniqish darajasi aniqlandi. Shu bilan birga, bank sektorida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar bilan suhbatlar asosida mavjud innovatsion yechimlarning ustunliklari va kamchiliklari aniqlab chiqildi.

Statistik va iqtisodiy tahlil – Raqamli texnologiyalarning bank operatsiyalari samaradorligiga ta'siri matematik va iqtisodiy tahlil usullari yordamida o'rganildi. Moliya bozori ishtirokchilari va raqamli bank mahsulotlari o'rtasidagi bog'liqlik statistik regressiya va korrelyatsiya modellari asosida tahlil qilindi.

Ekspert tahlili – Moliyaviy texnologiyalar va raqamli bank xizmatlariga doir yetuk mutaxassislarning fikrlari umimlashtirilib, ularning kelajak rivojlanishi yuzasidan prognozlari asosida xulosalar ishlab chiqildi.

Ushbu metodologik yondashuvlar asosida olib borilgan tadqiqot raqamli texnologiyalarning bank tizimiga ta'siri, ularning samaradorligi, xavfsizligi va rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan natijalarni shakllantirish imkonini berdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalarning bank tizimiga integratsiyasi bo'yicha xalqaro va mahalliy manbalar tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Prezident qarorlari (PQ-4996, PQ-3832) va elektron formatdagi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, Raqamli texnologiyalarning bank tizimiga ta'siri bo'yicha xalqaro va mahalliy manbalar tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Prezident qarorlari mahalliy bank tizimini raqamlashtirish bo'yicha strategik yo'nalishlarni ochib beradi. FinTech Futures va Blockchain Council kabi xalqaro manbalar esa fintech, blokcheyn va sun'iy intellektning global bank tizimiga ta'sirini yoritadi. Solix Technologies va NVIDIA tadqiqotlari sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarining moliyaviy operatsiyalar samaradorligini oshirishdagi rolini tahlil qiladi. O'zbekiston bank tizimidagi raqamli transformatsiya jarayonlarini yoritadi. FinTech Futures, Blockchain Council va Galaxy.ai kabi xalqaro platformalar fintech, blokcheyn va sun'iy intellektning global moliyaviy tizimga ta'sirini tahlil qiladi. M.U. Ravshanova, Sh.S. Sobirova va A.A. Tashxodjayevarlarning tadqiqotlari raqamli texnologiyalarni bank ishiga joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi. Solix Technologies, NVIDIA va Galaxy.ai sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarining bank tizimlarida qo'llanilishi bo'yicha ilg'or tajribalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek bu manbalar orqali O'zbekiston bank sektoridagi raqamli transformatsiya jarayonlari o'rganildi. Ushbu manbalar asosida bank tizimining raqamli islohotlari, xavfsizlik choralari va innovatsion yechimlarning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinib, amaliy xulosalar chiqarildi. Olib chiqilayotgan masalaning o'ziga xosligi shundaki, unda nafaqat bank tizimidagi raqamli texnologiyalarni umumiy o'rganildi, balki ularni O'zbekiston sharoitida amaliy joriy etish, FinTech kompaniyalar va tijorat banklari hamkorligini rivojlantirish, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanishning istiqbollari, shuningdek, raqamli xavfsizlik choralari bilan bog'liq aniq yechimlarni taklif qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dastavval shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda FinTech bozori umumiy hisobda 167,54 milliard AQSh dollariga baholanmoqda.¹


Yurtimizda ham bank tizimlariga FinTech texnologiyalarini tatbiq etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, hozirda aholi tijorat banklarining mobil ilovalari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, budjet, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit va kredit hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank kartalaridan to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek, onlayn konversiya operatsiyalarini bajarish imkoniyatlariga ega bo'lib, masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanilmoqda.²

1 Fintechfutures sayti. Manba: <https://www.fintechfutures.com/techwire/fintech-market-size-projected-to-grow-to-882-billion-by-2030-as-advanced-technologies-services-expand/>


2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti. Manba: <https://cbu.uz/uz/payment-systems/remote-banking-services/>



Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni
1 yanvar holatiga



Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni
(turlari bo'yicha)
1 yanvar holatiga



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar to'g'risida ma'lumot.

Birinci diagrammadan ko'rinadiki, masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar sonining yillik o'sishi qayd etilgan. Diagrammada quyidagi natijalarni ko'rish mumkin:

2012-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davr qamrab olingan. Har yili 1-yanvar holatiga ko'ra foydalanuvchilar soni ko'rsatilgan. 2012-yilda foydalanuvchilar soni 56 735 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 1 061 022 nafarga yetgan, 2019-yilda 7 959 107 kishiga ortgan bo'lsa, 2021-yilda 14 571 094 foydalanuvchi qayd etilgan, 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 20 203 384 ga yetgan.

Umuman olganda, grafikdan ko'radigan bo'lsak, masofaviy bank xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rish mumkin. Har yili sezilarli o'sish kuzatilgan bo'lib, ayniqsa, 2018-yildan keyin o'sish sur'ati yanada jadallashgan. Bunga sabab sifatida shu davrdan boshlab aholining raqamli savodxonligini keskin oshganligi, raqamli texnika va texnologiyalardan keng miqyosda foydalanish, mobil aloqa, internet va axborot tizimlarining yildan-yilga sifati yaxshilanayotganligini olish mumkin.

Shuningdek, Solix AI in Banking and Finance tizimi moliyaviy muassasalar uchun vaqt va mablag'ni tejashda samarali yechimlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Solix ECS AI in Banking and Finance bulutga asoslangan kontent xizmatlari platformasi bo'lib, markazlashtirilgan hujjatlarni boshqarish, sun'iy intellekt asosida hujjatlarni qayta ishlash, xavfsiz hamkorlik va kuchli boshqaruv tizimi orqali moliya tashkilotlariga operatsion samaradorlikni oshirish, muvofiqlik talablarini yaxshilash hamda xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Mazkur platformaning xususiyatlari quyidagicha namoyon bo'ladi:

Asosiy foydalanish ko'lam:

- Hujjatlarni bulut muhitida samarali saqlash va boshqarish.
- Ish jarayonlarini avtomatlashtirish va hujjat aylanishini optimallashtirish.
- Turli manbalardan hujjatlarni avtomatik ravishda yig'ish va qayta ishlash.
- Sun'iy intellekt (AI) yordamida hujjatlardan muhim ma'lumotlarni ajratib olish.

Foydali jihatlari:

- Jarayonlarni avtomatlashtirish orqali qo'lda bajariladigan ish hajmini qisqartirish.
- GDPR, HIPAA kabi muvofiqlik talablariga rioya qilishni ta'minlash.
- Bulutli infratuzilma yordamida IT xarajatlarini kamaytirish.
- O'sib borayotgan biznes ehtiyojlariga va turli sohalariga moslashuvchanlikni oshirish.

Texnik ko'rsatkichlar:

- AES-256-bit shifrlash texnologiyasi orqali ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va uzatish.
- Har xil formatdagi hujjatlarni boshqarish va qayta ishlash.
- Elektron pochta, ERP tizimlari va skaner kabi mavjud texnologiyalar bilan integratsiya qilish.
- 99.0% ish vaqti kafolati bilan barqaror ishlash.³

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 13-avgust kuni sun'iy intellekt va IT sohasidagi startab loyihalarni rivojlantirish chora-tadbirlariga taqdimotlar bilan tanishdi.⁴ Jahonda har bir sohaga sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar kirib kelmoqda. Bu borada yurtimizda ham qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, "MyID" va "UzFace" dasturlari 70 dan ortiq tashkilot, bank, elektron savdo maydonchalari va to'lov tizimlarida joriy qilinib, 10 million foydalanuvchini masofaviy biometrik identifikatsiya qilish imkoniyati yaratildi.

3 Solix Technologies, Inc. - sayti. Manba: <https://www.solix.com/uz/products/answers/ai-in-banking-and-finance/>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. Manba: <https://president.uz/oz/lists/view/7464>



Yurtimizda Bank-moliya sohasida ham sun'iy intellektni qo'llashni kengaytirish, bu bo'yicha kadrlar tayyorlash va xodimlar malakasini oshirish lozim. O'tgan yillarda bunday loyihalar uchun jalb qilingan venchur investitsiyalar 134 million dollarni tashkil qilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga⁵ muvofiq, ushbu sohada dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Tadqiqotlar doirasida sun'iy intellektdan foydalanishga oid maxsus huquqiy rejim joriy qilinib, ushbu maqsadlar uchun 200 milliard so'm ajratilgan.

Ushbu tashabbus doirasida quyidagilar tashkil etilishi rejalashtirilgan:

- Sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot instituti;
- Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzurida maxsus departament;
- Turli tashkilot va idoralar ishtirokida qo'shma alyans;
- Raqamli ma'lumotlar platformasi.

2021–2024-yillar davomida mamlakat oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt bo'yicha ta'lim olish uchun 130 ta grant o'rni ajratildi. Shuningdek, ovozli biometriya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha Rossiyaning "Sber" guruhi bilan hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda.⁶

Moliyaviy sektorda sun'iy intellektdan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etib, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, risklarni boshqarish, shaxsiylashtirilgan xizmatlar yaratish hamda investitsion portfellarga samarali rahbarlik qilish imkoniyatini taqdim etmoqda. 2023-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, NVIDIA (grafik protsessor (GPU) va sun'iy intellekt (AI) sohasidagi yetakchi kompaniya) Amerika va Yevropada joylashgan 200 ta moliya instituti bilan yirik til modellarini ishlab chiqish (26%), tavsiyalar tizimini optimallashtirish (23%), investitsion portfellarini boshqarish (23%), moliyaviy firibgarlikni aniqlash (22%) yo'nalishlarda hamkorlik qilgan. So'rovlarda qatnashgan respondentlarning yarmi sun'iy intellekt yillik daromadni 10% ga oshirishiga, uchdan bir qismi esa yillik xarajatlarni 10% ga kamaytirishiga ishonishini bildirgan.

Sun'iy intellekt (AI) – bu ma'lumotlar, hisoblash quvvati va ilg'or texnologiyalar kombinatsiyasidir. AI texnologik jihatdan quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Mashinali o'rganish (Machine Learning): Moliyaviy ma'lumotlardagi anomalialarni aniqlash, prognoz qilish va tasniflash uchun nazorat ostida yoki nazoratsiz o'qitiladigan algoritmlar tizimi.

Chuqur o'rganish (Deep Learning): Neyron tarmoqlardan foydalangan holda moliyaviy ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish. Agar bozor ma'lumotlari yuzlab million yozuvlarni o'z ichiga olsa, Deep Learning ushbu murakkab ma'lumotlarni qayta ishlashda samarali bo'ladi.

Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP): Shartnomalardan ma'lumot olish, moliyaviy bozor sentimentlarini tahlil qilish va fintech sohasida mijozlar tajribasini yaxshilash uchun chatbotlardan foydalanish kabi jarayonlarda qo'llaniladi.

Moliyaviy tizimda AI texnologiyalarining ahamiyati. Moliyaviy sektor tarixan aniq qoidalar, algoritmlar va ma'lumot almashish mexanizmlari asosida shakllangan bo'lib, bu tizimda banklar o'zaro hamkorlik qiladi va tashqi dunyo bilan aloqalarni yo'lga qo'yadi. Katta hajmdagi kiruvchi ma'lumotlarni samarali tahlil qilish moliya institutlari uchun murakkab vazifa hisoblanadi. Sun'iy intellekt ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish orqali ancha samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Moliya sanoati AI texnologiyalaridan beshta asosiy yo'nalishda foydalanadi:

- Sarmoya boshqaruvi
- Kredit skoring va andarrayting
- Normativ talablar va muvofiqlik
- Bozor tadqiqotlari va hisobot tayyorlash
- Mijozlarni qo'llab-quvvatlash va xizmat ko'rsatish

AI asosida moliyaviy mahsulotlarning raqamli platformalarga integratsiyasi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, masofaviy xizmatlarning kengayishi va mijozlarni onlayn identifikatsiya qilish imkoniyatlarining oshishi natijasida sun'iy intellektdan foydalanish keng qamrovli moliyaviy mahsulotlarni yagona raqamli platformalar orqali taqdim etish imkonini bermiqda. Ushbu platformalar quyidagi sohalarga ixtisoslashgan:

Bank ishi

- InsurTech (Insurance Technologies – sug'urta texnologiyalari)
- PropTech (Property Technologies – ko'chmas mulk texnologiyalari)
- WealthTech (Wealth Technologies – investitsiyalar va mablag'larni boshqarish)

Ixtisoslashuv bo'yicha taqsimotga qaramasdan, turli yo'nalishlarni birlashtirgan va muvaffaqiyatli ishlayotgan platformalararo echimlar ham mavjud.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 yildagi PQ-4996-sonli Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-5297046>

6 Daryo.uz sayti. Manba: <https://daryo.uz/2021/02/18/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonda-suniy-intellektni-joriy-etishni-jadallashtirishga-oid-hujjatni-imzoladi>



Biznes modellar va AI ning roli. Moliyaviy ekotizimda uch asosiy biznes modeli mavjud:

B2C (Business-to-Consumer): Kompaniyalar mahsulot va xizmatlarini bevosita iste'molchilarga yetkazadi. Masalan, FMCG kompaniyalari (HUL, Britannia) yoki elektron tijorat platformalari (Nykaa). Muhim omillar:

Bozorga kirish strategiyalari;

Narxlash siyosati;

Brend kuchi va mijozlarning sodiqligi

B2G (Business-to-Government): Davlat tashkilotlariga mahsulot va xizmatlar yetkazib beradigan kompaniyalar. Bu segmentga xususi va davlat korxonalari kiradi. Masalan:

Mudofaa pudratchilari;

Infratuzilma firmalari

B2B (Business-to-Business): Kompaniyalar boshqa biznes subyektlariga mahsulot va xizmatlar yetkazib beradi. Masalan, kimyo kompaniyalari boshqa ishlab chiqaruvchilarga xomashyo yetkazib berishi mumkin. Muhim jihatlar:

Imkoniyatlardan samarali foydalanish;

Raqobat muhiti va strategiyalar;

Xomashyo manbalarini optimallashtirish

B2C, B2G va B2B modellari korxonalar, jismoniy shaxslar va davlat muassasalari o'rtasidagi moliyaviy operatsiyalarni tavsiflash uchun qo'llaniladi.

Raqamli iqtisodiyot va AI integratsiyasi. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot birinchi navbatda elektron tijorat, internet-banking, raqamli to'lovlar, internet-reklama va onlayn xizmatlar orqali sun'iy intellektidan samarali foydalanishga asoslanadi. Bugungi kunda Amazon, Alibaba, Facebook, Didi Chuxing va Airbnb kabi global kompaniyalar raqamli platformalarni asosiy biznes modeli sifatida qabul qilib, ulardan foydalanuvchilar o'rtasidagi barcha bitimlarni boshqarish uchun foydalanmoqda. Elektron tijoratning jadal rivojlanishi raqamli iqtisodiy makonda bozor mexanizmlarini shakllantiradi va bitimlar sonining izchil o'sishiga olib keladi.⁷

Kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyasi. Dastlab 2009-yilda paydo bo'lgan Bitcoin birinchi kriptovalyuta sifatida tarixga kirdi. Bugungi kunga kelib, dunyo bo'ylab 10 mingdan ortiq turli kriptovalyutalar mavjud.

Kriptovalyuta – bu raqamli shakldagi valyuta bo'lib, uni jismonan sezish yoki ushlab mumkin emas. Ushbu aktiv foydalanuvchilarning balanslari va tranzaksiyalarini o'z ichiga olgan elektron reyestrda saqlanadi. Bu reyestrlar blokcheyn deb nomlanib, ularni buxgalteriya hisobi tizimiga qiyoslash mumkin. An'anaviy naqd pullardan farqli o'laroq, kriptovalyutalar markaziy bank yoki hukumat tomonidan nazorat qilinmaydi. Ularning qiymati doimiy ravishda talab va taklifga bog'liq holda o'zgarib turadi. Shu bilan birga, kriptovalyuta orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalar qonuniy himoyaga ega emas. Agar bitim davomida xatolik yuz bersa, uni tuzatish yoki himoya qilish uchun bank yoki davlat regulyatori mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kriptovalyutalar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁸ 3832-sonli qaroriga muvofiq, mamlakatda kriptoaktivlar aylanmasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan tartibga solinishi belgilangan.

Blokcheyn texnologiyasining moliya sohasidagi ahamiyati. Blokcheyn texnologiyasi bank xizmatlarini modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirishda keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu innovatsion texnologiya moliyaviy operatsiyalar xavfsizligini ta'minlash, tranzaksiyalarni tezlashtirish va operatsion xarajatlarni kamaytirish bilan bir qatorda, yangi xizmatlar va biznes modellari uchun mustahkam asos yaratmoqda. Xalqaro pul o'tkazmalari jarayoni blokcheyn yordamida tubdan o'zgarishga yuz tutmoqda. Blokcheyn texnologiyasi vositachilarsiz, to'g'ridan-to'g'ri tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, Ripple kabi platformalar blokcheyn asosida xalqaro pul o'tkazmalarini bir necha daqiqada amalga oshirish imkonini yaratmoqda.

Smart-kontraktlar va ularning afzalliklari. Smart-kontraktlar – bu blokcheyn tarmog'ida ishlaydigan dasturiy shartnomalar bo'lib, ular oldindan belgilangan shartlar bajarilganda avtomatik ravishda ishga tushadi. Blokcheyn texnologiyasi bank sektorida quyidagi muhim afzalliklarni ta'minlaydi:

Xalqaro pul o'tkazmalarini tezlashtirish;

Smart-kontraktlar orqali operatsiyalarni avtomatlashtirish;

Moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash;

Kreditlash jarayonlarini soddalashtirish;

7 M.U.Ravshanova - Moliya tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish yo'llari va jahon tajribasi – maqola "Экономика и Социум" jurnali №105-son, 2023-yil. Manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/moliya-tizimiga-raqamli-texnologiyalarni-joriy-etish-yo-llari-va-jahon-tajribasi/viewer>

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.07.2018 yildagi PQ-3832-sonli Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-3806053>



Operatsion xarajatlarni qisqartirish.

Ushbu texnologiyalar moliya sektorini innovatsion o'zgarishlarga olib kelmoqda va bank xizmatlarining yanada raqamlashtirilishiga yo'l ochmoqda.⁹

Ma'lumotlarning xavfsizligi va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish. Banklar mijozlarning katta hajmdagi nozik ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish jarayonida ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. 2017-yilda yuz bergan Equifax ma'lumotlar buzilishi hodisasi kiberxavfsizlik choralari mustahkamlash zarurati yana bir bor isbotladi. Banklar nafaqat mijoz ma'lumotlarini tashqi tahdidlardan himoya qilishlari kerak, balki GDPR va CCPA kabi qat'iy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalariga rioya qilish orqali katta jarimalar va obro'ga putur yetkazish xavfini minimallashtirishlari lozim. Sun'iy intellektning bank tizimida keng qo'llanilishi algoritmik tarafkashlik va diskriminatsiya bilan bog'liq xavotirlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, banklar AI algoritmlarini ishlab chiqishda adolat va shaffoflikni ustuvor tamoyil sifatida belgilashlari, tarafkashlikni minimallashtirish hamda barcha mijozlar uchun teng imkoniyat yaratish maqsadida doimiy tekshiruv va takomillashtirish jarayonlarini olib borishlari lozim.

Chakana bank faoliyatida sun'iy intellektning shaxsiylashtirishdagi roli. L.Jonsonning tadqiqotlari sun'iy intellektning chakana bank sohasida shaxsiylashtirish imkoniyatlariga bag'ishlangan. Tadqiqotda banklarning mijoz ma'lumotlarini tahlil qilish, ularni afzalliklari va xatti-harakatlariga qarab segmentlarga ajratish, shuningdek, shaxsiylashtirilgan mahsulot tavsiyalari va takliflarini taqdim etish maqsadida ilg'or tahlil usullari va AI algoritmlaridan qanday foydalanayotgani o'rganilgan.

Bank va moliya xizmatlarida AI qabul qilinishining axloqiy oqibatlar. S. Patelning tadqiqoti sun'iy intellektni bank va moliya sohasida joriy etish bilan bog'liq axloqiy muammolarni tahlil qiladi. U AI algoritmlariga xos bo'lishi mumkin bo'lgan xavf va qiyinchiliklarni, jumladan tarafkashlik, diskriminatsiya va shaffoflik yetishmovchiligi masalalarini muhokama qiladi. Tadqiqot bank faoliyatida sun'iy intellektidan mas'uliyatli foydalanishni ta'minlash uchun axloqiy me'yorlar, huquqiy asoslar va sanoat standartlarini shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi.¹⁰

O. Melikov tomonidan raqamli bank texnologiyalari, ularning tarkibi va asosiy elementlari keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotda xorijiy va mahalliy olimlarning bank texnologiyalari bo'yicha ilmiy qarashlari chuqur o'rganilib, tahlil qilingan. Bugungi kunda dunyo bank tizimida keng qo'llanilayotgan quyidagi ilg'or bank texnologiyalariga alohida e'tibor qaratilgan:

Automated Teller Machine (ATM) – bankomatlar orqali naqd pul yechish va bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati;

Mobile Banking – mobil qurilmalar orqali bank operatsiyalarini amalga oshirish;

Internet Banking – internet orqali masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish;

Video Teller Machine (VTM) – video orqali bank vakillari bilan masofaviy aloqa qilish imkonini beruvchi qurilmalar;

Secure Short Messaging Service (SSMS) – xavfsiz qisqa xabar almashish xizmati;

SIM Application Toolkit – SIM-karta asosida bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi texnologiya;

RFID Technology – radiochastotali identifikatsiya texnologiyasi orqali tezkor to'lovlarni amalga oshirish;

Mobile Money – mobil ilovalar orqali elektron pul operatsiyalarini amalga oshirish.

Tadqiqotda ushbu texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari va ularning bank tizimidagi afzalliklari batafsil ochib berilgan.¹¹

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa shundan iboratki, zamonaviy raqamli texnologiyalar bank va moliya tizimlarini tubdan o'zgartirib, ularning samaradorligi, xavfsizligi va qulayligini sezilarli darajada oshirmoqda. Blokcheyn, sun'iy intellekt, raqamli to'lov tizimlari va kriptovalyutalar kabi innovatsion yechimlar moliyaviy operatsiyalarni tez, kam xarajatli va shaffof tarzda amalga oshirish imkonini bermoqda.

Raqamli bank xizmatlari mijozlarga 24/7 rejimda moliyaviy amaliyotlarni bajarish imkoniyatini taqdim etib, naqd pulsiz iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Smart-kontaktlar va markazlashmagan moliya (DeFi) tizimlari esa an'anaviy bank xizmatlarini takomillashtirish, vositachilarsiz tranzaksiyalarni amalga oshirish va ishonchli muqobil moliyaviy mexanizmlarni yaratish imkonini bermoqda.

9 Sh.S.Sobirova – maqola, "Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari" ilmiy jurnali, 37-to'plam 2-qism Noyabr 2024-yil, "Blokcheyn texnologiyalari orqali bank xizmatlarini modernizatsiya qilish". Manba: <https://pedagoglar.org/01/article/download/5853/5278/10384>

10 A.A. Tashxodjayev, - maqola, Qo'qon universiteti xabarnomasi, ISSN: 2181-1695, "Bank ishida sun'iy intellekt imkoniyatlar va muammolar". Manba: [file:///C:/Users/User/Downloads/22.+Iqtisodiyot+Tashxodjayev+Abdurasul+Abdulgansurovich2%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/22.+Iqtisodiyot+Tashxodjayev+Abdurasul+Abdulgansurovich2%20(1).pdf)

11 Manba: https://galaxy.ai/youtube-summarizer/understanding-business-models-a-comprehensive-guide-to-b2b-b2c-and-b2g-4xRWy_cBBE4



Biroq, ushbu texnologiyalar bilan bog'liq kiberxavfsizlik tahdidlari, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi va raqamli nomutanosiblik kabi muammolarni hal qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli, bank tizimlarining kelajagi innovatsiyalarni muvozanatli joriy etish, samarali tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda texnologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan strategiyalarni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy raqamli texnologiyalar bank va moliya tizimlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ular iqtisodiy o'sish, moliyaviy inklyuziya va xizmatlar sifatining oshishiga xizmat qilib, global moliyaviy tizimda raqobatbardosh va barqaror infratuzilmani yaratishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Fintechfutures sayti. Manba: <https://www.fintechfutures.com/techwire/fintech-market-size-projected-to-grow-to-882-billion-by-2030-as-advanced-technologies-services-expand/>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti. Manba: <https://cbu.uz/uz/payment-systems/remote-banking-services/>
3. Solix Technologies, Inc. sayti. Manba: <https://www.solix.com/uz/products/answers/ai-in-banking-and-finance/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-5297046>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. Manba: <https://president.uz/uz/lists/view/7464>
6. Daryo.uz sayti. Manba: <https://daryo.uz/2021/02/18/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonda-suniy-intellektni-joriy-etishni-jadallashtirishga-oid-hujjatni-imzoladi>
7. M. U. Ravshanova – “Moliya tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish yo'llari va jahon tajribasi”, *Ekonomika i Sotsium jurnali*, №105-son, 2023-yil. Manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/moliya-tizimiga-raqamli-texnologiyalarni-joriy-etish-yo'llari-va-jahon-tajribasi/viewer>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-3806053>
9. Sh. S. Sobirova – maqola: “Blokcheyn texnologiyalari orqali bank xizmatlarini modernizatsiya qilish”, *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari*, ilmiy jurnal, 37-to'plam, 2-qism, 2024-yil noyabr. Manba: <https://pedagoglar.org/01/article/download/5853/5278/10384>
10. A.A. Tashxodjayev – “Bankishidasun'iyintellekt: imkoniyatlarvamuammolar”, *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, ISSN: 2181-1695. Manba: [file:///C:/Users/User/Downloads/22.+Iqtisodiyot+Tashxodjayev+Abdurasul+Abdulmansurovich2%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/22.+Iqtisodiyot+Tashxodjayev+Abdurasul+Abdulmansurovich2%20(1).pdf)
11. Galaxy.ai sayti. Manba: https://galaxy.ai/youtube-summarizer/understanding-business-models-a-comprehensive-guide-to-b2b-b2c-and-b2g-4xRWy_cBB4



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>